

FRANSUZCHA ZOOKOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKMALARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI

A'zamova Gulnoza Abduxoliq qizi

SamDCHTI magistranti

azamovagulnoza549@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada fransuzcha zookomponentli frazeologik birliklarning o'zbek tiliga tarjima xususiyatlari muhokama qilingan. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Bugungi kunda ham inson faoliyatining aksariyat sohalari, xususan, qishloq xo'jaligi, sanoat, sport, ilm va boshqalar hayvonlar bilan bog'liqdir. Inson – hayvonot dunyosi munosabati tilning lug'at tarkibiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lib, tilning leksik fondidagi zoonim komponentli iboralar guruhi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so'zlar: *Zookomponentli frazeologik birliklar, somatik so'zlar, antroposentrik xususiyat, frazeologizmlarning ekvivalentliligi, qiyosiy tadqiqot, semantik maydon, sintagmatik tuzilish.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности перевода французских зоокомпонентных фразеологизмов на узбекский язык. Зоокомпонентные фразеологизмы сложились в результате длительных тысячелетних взаимоотношений человека и животных. Даже сегодня многие сферы человеческой деятельности, включая сельское хозяйство, промышленность, спорт, науку и другие, связаны с животными. Взаимоотношения человека и животных также повлияли на словарный запас языка и сыграли важную роль в формировании группы словосочетаний с зоонимическим компонентом в лексическом фонде языка.

Ключевые слова: *зоокомпонентные фразеологизмы, соматические слова, антропоцентрический признак, эквивалентность фразеологии, сопоставительное исследование, семантическое поле, синтагматическая структура.*

ABSTRACT

This article discusses the features of translation of French zoocomponent phraseological units into Uzbek. Zoocomponent phraseological units have evolved as a result of long millennial relationships between humans and animals. Even today,

many areas of human activity, including agriculture, industry, sports, science, and others, involve animals. The human-animal relationship has also influenced the vocabulary of the language and played an important role in the formation of a group of phrases with a zoonymic component in the lexical fund of the language.

Keywords: *Zoocomponent phraseological units, somatic words, anthropocentric feature, equivalence of phraseology, comparative research, semantic field, syntagmatic structure.*

KIRISH

Frazeologik birliklar ifodalanishi va tuzilishiga ko'ra turli guruh va bo'limlarga ajratib o'rganiladi. Frazeologizmlar tarkibida turli komponentlar, xususan, somatik so'zlar, o'simliklar, gullar, tabiat hodisalari, hayvon nomlari ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar nutqda faolligi jihatidan somatik frazeologizmlardan keyingi o'rinda keladi. Zookomponentli frazeologik birliklar inson va hayvonlarning uzoq ming yillik munosabatlari natijasida rivojlangan. Zoonim komponentli iboralar antroposentrik xususiyat bilan xarakterlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Frazeologik birlik" tushunchasiga juda ko'p ta'riflar mavjud. A.V.ning so'zlariga ko'ra. Kunin, "frazeologik birliklar to'liq yoki qisman qayta o'ylangan ma'noga ega bo'lgan leksemalarning barqaror birikmasidir".

V.M. Mokienkoning aytishicha, frazeologik birlik yaxlit ma'noga ega bo'lgan leksemalarning nisbatan turg'un, takrorlanuvchi, ifodali birikmasidir.

NATIJALAR

Fransuzcha zoofrazeologizmlar tarkibida it, mushuk, qo'y, ot, ho'kiz, sigir, echki, tuya, tovuq, kurka kabi uy hayvonlari; tulki, quyon, yo'lbars, ayiq, bo'ri, to'ng'iz singari yovvoyi hayvonlar; sichqon, olmaxon singari kemiruvchilar; qushlar: chumchuq, qarg'a, bulbul, bedana, mayna, g'oz, o'rdak, tovus; suvda yashovchilar hamda hasharot nomlarini bildiruvchi zoonimlar ishtirok etadi. Zookomponentli frazeologik birliklar ma'nosi bilan tarkibidagi so'zlarining ma'nolari orasidagi munosabatga ko'ra frazeologik chatishmalar va frazeologik butunlikka ajratiladi. Frazeologik chatishmalarning umumiy ma'nosi ularni tashkil qilgan komponent so'zlar ma'nosiga umuman mos kelmaydi. Frazeologik butunlikning ma'nosi tarkibidagi so'zlarining ma'nosi asosida izohlanadi.

MUHOKAMA

Fransuz tilidagi zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko'rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi.

Fransuzcha zookomponentli frazeologik birliklarni semantik xususiyatiga ko'ra shartli ravishda uch turga bo'lishi mumkin:

1. Inson xarakter xususiyatlari fe'l-atvorni tasvirlovchi frazeologik birliklar:

- *malin comme un singe = rusé comme un renard - tulkiday ayyor;*
- *fier comme un paon = fier comme un coq - xo'rozday mag'rur;*
- *têtu comme un âne - eshakday qaysar;*
- *doux comme un agneau - qo'yday yuvvosh;*
- *la tête de linotte - kaltafahm, ovsar;*
- *une vraie peau de vache - qahri qattiq, bag'ritosh;*
- *une poule mouillée - bo'sh, o'ta ketgan sodda;*
- *ours mal léché - qo'pol, qo'rs;*
- *un pigeon - axmoq.*

2. Insonning harakat, xolatini tasvirlovchi zookomponentli frazeologik birliklar:

- *faire le pied de grue - uzoq kutmoq;*
- *poser un lapin - uchrashuvga kelmaslik, aladamoq;*
- *traiter comme un chien - yomon munosabatda bo'lmoq, itdek muomala qilmoq;*

- *rire comme une baleine - dumalab qah-qah o'tib kulmoq;*
- *tirer les vers du nez - o'smoqchilab bilib olmoq, gapirtirmoq;*
- *noyer le poisson - ishni chigallashtirmoq;*
- *pleurer comme un veau - bo'kirib, ho'ngrab yig'lamoq;*
- *prendre le taureau par les cornes - tog'ridan to'g'ri ishga kirishmoq, dadil ish boshlamoq;*

- *avoir une faim de loup - bo'riday och bo'lmoq;*
- *dormir comme un loir - don qotib uxlamoq;*
- *avoir d'autres chats à fouetter - boshqa muhim ishi bo'lmoq;*
- *appeler un chat un chat - tilida to'g'ri bo'lmoq, narsalarni qanday bo'lsa shundayligicha atamoq;*

- *être comme un coq en pâte - shohona hayot kechirmoq.*

3. Vaziyat yoki holatni baholovchi zookomponentli frazeologik birliklar :

- *il y a anguille sous roche - bu yerda nimadir ko'ngildagidek emas;*
- *il n'y a pas de quoi casser trois pattes à un canard - bu yerda noodatiy narsa yo'q (fr: o'rdakni uch oyog'ini sindirishga arziydigan narsa yo'q);*
- *revenons à nos moutons - mavzuga qaytamiz.*

Fransuzcha zookomponentli iboralar o'zbekcha birliklar bilan taqqoslaganda ularning tuzilish hamda o'xshatish obrazi jihatdan to'liq, qisman, hamda umuman

mos kelmaslik holatlari ya'ni milliy urf-odatlar, an'analar, turmush tarzi nuqtayi nazardan shakllanib tilda muqim o'rnashib qolgan zookomponentli frazeologik birliklarni kuzatishimiz mumkin.

1. To'liq mos keluvchi zookomponentli frazeologik birliklar - bularni xalqaro zookomponentli frazeologik birliklar deb atash mumkin.

- *répéter qqch. comme un perroquet* - to'tiqushdek takrorlamoq;
- *doux comme un agneau* - qo'ydek yuvvosh;
- *fort comme un bœuf* - ho'kizday kuchli va boshqalar.

2. Qisman mos keluvchi zookomponentli frazeologik birliklar - bunday hollarda ma'no jihatdan to'liq mos kelib shakl jihatdan ya'ni o'xshatish obrazi mos kelmaydigan frazeologik birliklarni misol keltirish mumkin:

- *sauter du coq à l'âne* - biri bog'dan bir tog'dan kelmoq - приграт с пятого на десятое;

- *soufler comme un phoque* - ho'kizday pishqirib nafas olmoq- дышать как загнанная лошадь;

- *un mouton à cinq pattes* - anqovni urug'idek (noyob narsalarga nisbatan) белая ворона.

3. Milliy frazeologik birliklar. *Etre gourmand comme un chat* - bu frazeologik birlikni o'zbek tiliga tarjima qilish qiyin, chunki o'zbek tilida "shirinlikni yoqtiruchi" sifatida nisbat beriladigan hayvon yo'q, faqatgina so'zma so'z " mushukdek shirintomoq bo'lmoq" deb tarjima qilish mumkin. Fransuz tilida milliy o'ziga xoslik tufayli ko'plab gastronomik kannotatsiyalar hayvonga ko'chiriladi. Frazeologik birliklarning konnotativ ma'nosini o'rganish frazeologik birliklarni hissiyot nuqtai nazaridan to'liqroq tekshirishga imkon berdi. Xarakterni tushunish frazeologik birliklarni tanlash uchun asos bo'lib, izlanishlar natijasida yagona "fe'l-atvor" frazeologik semantik maydoni sifatida ko'rib chiqildi. Shaxsning fe'l-atvorini anglatuvchi frazeologik birliklar o'zlarining semantik tarkibida xuddi shu nomni o'z ichiga oladi.

Frazeologik birlikning semantik tuzilishi makrokomponentlarning murakkab bloki shaklida taqdim etiladi: 1) denotativ komponent, 2) grammatik komponent, 3) baholovchi komponent, 4) motivatsion komponent, 5) stilistik komponent, 6) milliy va madaniy komponent. Semantikaning barcha tarkibiy qismlari birgalikda frazeologik birlikning semantik tuzilishini ifodalaydi, har bir frazeologik birliklarni semantik tahlil qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar bilan yaqindan tanishilsa, yanada ko'proq ma'lumotlar jamlanganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek semantik ma'no jihatdan fransuzcha zoonim komponentli iboralarga o'zbekcha boshqa zoonim komponenti mos kelgan frazeologik birliklar mavjud bo'lib, bu guruhdagi iboralarning shaklanishida har ikkala xalqning o'ziga xos hayvonot olami muhim o'rin egallagan. Ular quyidagilardan iborat: fransuzcha FB o'zbekcha FB larning ma'nolari fier comme un coq - xo'rozday kekkaygan, yoki shunga ekvivalent maqol - kerilma g'oz xunaring oz, rusé comme un renard - tulkiday ayyor, faire d'une mouche un éléphant- pashshadan fil yasamoq mubolag'a qilib, bo'rttirib yubormoq iboralari misol keltirish mumkin. Shuningdek, hech qachon umuman soadir bo'lmaslik ma'nosini ifodalash uchun " quand les poules auront des dents" - "tuyani dumi yerga tekkanda" iborasini; sodiqlik, fidoiylik ma'nosini ifodalash uchun "les loups ne se mangent pas entre eux" - "qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi" maqoli bilan ifodalanadi. Bunda hayvonlar boshqa-boshqa, lekin ko'zlangan ma'no ham, maqsad ham bir. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta. Har ikki tilda ham "takrorlamoq, qaytarmoq, bir gapni hadeb aytavermoq" ma'nosini ifodalash uchun to'ti obrazi "répéter qqch. comme un perroquet" - "nimanidir to'tiday takrorlamoq" keng foydalaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, har bir millatning tili asrlar davomida shaklangan o'ziga xos milliy an'analari hamda urf-odatlarini aks ettirib turuvchi boy lug'at tarkibiga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Biz bu tillarni qiyoslab o'rganar ekanmiz insonning xarakteri va holatini ifodalash har bir tilda mentalitetidan kelib chiqqan holda berilishini, ularning milliylik doirasidagi so'zlarini o'z o'rnida qo'llash, ma'no kengayish usullarini hamda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganib boramiz. Ko'rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. А. Г. Назарян Фразеология современного французского языка, Москва " Высшая школа" 1987.
2. Бардоши В., Эттингер Ш., ШтельтингС., Бутина Е В. Фразеологизмы французского языка: Словарь-практикум. Екатеринбург: Уральское изд-во, 2002.

3. Исмоилов Ф. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.
4. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши // Таржима масалалари. № 2. –Тошкент: ТошДШИ, 2014.
5. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
6. Jumanazarova G.U. «Shirin bilan Shakar» dostonining lugʻaviy va lingvopoetik xususiyatlari (Fozil Yoʻldosh oʻgʻli varinti asosida):Filol. fan. nomz. dis. avtoref. –Т., 2008. -26 б.
7. Ibrat. «Ergash Jumanbulbul oʻgʻli ijodining maʼnaviy qadriyatlarini yuksaltirishdagi oʻrni va ahamiyati» ilmiy-amaliy anjumanining materiallari. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. – 84 б.
8. Salimova, Z. R. Q. (2021). TURK TILIDA XARAKTERNI BILDIRUVCHI ZOOFRAZEOLOGIZMLAR SEMANTIKASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(Special Issue 2), 226-237.
9. Barushkova, S. (2019). Les particularités de la traduction des unités (ou locutions) phraséologiques. *Revue du CEES: Centre Européen d'Etudes Slaves*, 7.